



## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO‘MITASINING BUYRUG‘I

2022 yil “ 1 ” noyabr № 78

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining 2022- yil 20- maydagi “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 276-son qarori ijrosini ta‘minlash hamda Davlat statistika qo‘mitasi tizimida davlat xaridlarini amalga oshirishning raqobatli usullarini amaliyotga joriy etish maqsadida, **BUYURAMAN:**

1. Quyidagilar:

Davlat statistika qo‘mitasi markaziy apparatida davlat xaridlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha xarid komissiyasi tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining statistika boshqarmalarida davlat xaridlarini amalga oshirish bo‘yicha xarid komissiyasi namunaviy tarkibi 2-ilovaga muvofiq;

Davlat statistika qo‘mitasida elektron do‘kon vositasida davlat xaridlarini amalga oshirish sxemasi 3-ilovaga muvofiq;

Davlat statistika qo‘mitasida boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksion vositasida davlat xaridlarini amalga oshirish sxemasi 4-ilovaga muvofiq;

Davlat statistika qo‘mitasida eng yaxshi takliflarni tanlash vositasida davlat xaridlarini amalga oshirish sxemasi 5-ilovaga muvofiq;

Davlat statistika qo‘mitasida tender vositasida davlat xaridlarini amalga oshirish sxemasi 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Davlat statistika qo‘mitasi markaziy apparatida davlat xaridlariga oid shikoyatlarni ko‘rib chiquvchi komissiya tarkibi 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Moliya-iqtisodiyot boshqarmasi (J. Shirinov), Bosh auditor O. Bobojonov, Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmati (Z. Abduxamidov):

- bir hafta muddatda O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2022- yil 20- maydagi “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 276-son qarori va mazkur buyruq mazmun-mohiyatini hamda amalga oshirish tartibini Qo‘mita markaziy apparati va hududiy statistika organlariga tanishtirishni;



- doimiy asosda davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq jarayonlarni qonun hujjatlariga muvofiqligi nazoratini ta'minlasinlar.

3. Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti (B. G'ayibnazarov), Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar statistika boshqarmalari:

- barcha davlat xaridlarini Vazirlar Mahkamasining 2022- yil 20- maydagi 276-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom asosida amalga oshirilishini;

- mazkur buyruqning 2-ilovasidagi namunaviy tarkibda xarid komissiyasi ishini tashkil etilishini;

- davlat xaridlarini va xarid qilingan tovarlarni (ishlar, xizmatlar) qabul qilish, saqlash va tasarruf etish ishlarini amalga oshirish boshqarmaning Buxgalteriya hisobi va moliyaviy ishlar bo'limi boshlig'i tomonidan ta'minlansin.

4. Ishlar boshqarmasi davlat xaridlarini amalga oshirishda zaruratga ko'ra, tegishli yo'nalishlar bo'yicha o'rnatilgan tartibda, outsourcing asosida boshqa korxonalar va tashkilotlardan ekspert-mutaxassis yollash vakolati berilsin.

5. Axborot xavfsizligi boshqarmasi (Sh. Djanadilov), Moliya-iqtisodiyot boshqarmasi (J. Shirinov) xarid komissiyasining har bir a'zosi va mas'ul kotibiga davlat xaridlarining elektron tizimida o'z vazifalarini amalga oshirish uchun ERI kalitlarini olishni ta'minlasin.

6. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash boshqarmasi (F. Berdibayev) ushbu buyruq talablari bilan markaziy apparatni tanishtirish hamda hududiy statistika organlariga yetkazish choralarini ko'rsin.

7. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimmasida qoldiraman.

**Rais**



**B. Begalov**

















Bosqichlar	Sub'ektlar	Chora-tadbirlar	Muddatlar
5-bosqich	Xarid komissiyasi	<p>Tanlov ishtirokchilari tomonidan joylashtirilgan takliflar va biriktirilgan fayllardan iborat elektron hujjatlarni xarid komissiyasi azolari tanlov hujjatlaridagi malumotlarga va tanlov shartlariga muvofiqligini tekshiradi.</p> <p>Tanlov jarayonlaridagi qo'yilgan shartlarga ko'ra eng past narx yoki ball usulidan foydalangan holda g'olib ishtirokchi aniqlanadi.</p> <p>Tanlash takliflarini ko'rib chiqish hamda baholash natijalarini avtomatik ravishda shakllanadigan dastlabki elektron bayonnomada qayd etadi va ushbu bayonnomani ERIdan foydalangan holda komissiya a'zolari imzolaydi hamda bayonnomani xarid portaliga muhokama uchun joylashtiradi, agar <b>ikki ish kuni ichida</b> tanlash ishtirokchilari tomonidan tanlash o'tkazish natijalari bo'yicha e'tirozlar tushmagan bo'lsa, bu to'g'risida tegishli elektron bayonnomani rasmiylashtiradi.</p>	Takliflar berish tugagan vaqtdan e'tiboran o'n ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatda
6-bosqich	Ishlar boshqarmasi, Yuridik bo'lim, Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmati,	<p>Tanlov yakuniga ko'ra g'olib deb topilgan ishtirokchi bilan shartnoma tayyorlanadi va tegishli bo'linmalar bilan kelishgan holda qo'mita raisi tomonidan imzolash uchun kiritiladi.</p> <p>Shartnoma summasining umumiy qiymati 1 mlrd so'mgacha 30% avans, 1 mlrd so'mdan oshgan taqdirda 15% avans to'lovi amalga oshiriladi.</p> <p>Mazkur imzolangan shartnomani tegishli bildirishnoma bilan birgalikda Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limiga taqdim etadi.</p>	G'olib aniqlangan kundan boshlab o'n ish kunidan
7-bosqich	Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi	Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi shartnomada ko'rsatilgan summani birjaning hisobraqamiga avans tarzida o'tkazib beradi.	3 ish kunida
8-bosqich	Ishlar boshqarmasi, Masul boshqarmalar, Axborot xavfsizligi boshqarmasi, Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi, Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmati, Yuridik bo'lim	<p>Shartnomaga muvofiq yetkazib berilgan tovarni (bajarilgan ish, xizmatlarni), Ombor mudiri va tegishli boshqarma vakili bilan birgalikda shartnomada keltirilgan talablarga mos kelishi yoki ish xizmatlarning to'liq bajarilganligi bo'yicha tekshiruv o'tkaziladi.</p> <p>Tovar (ishni, xizmatlar) shartnomada va tavsif-texnik topshiriqda ko'rsatilgan parametrlarga mos kelgan taqdirda yoki to'liq bajarilganda ishlar boshqarmasi boshlig'i topshiriga muvofiq Ombor mudiri yoki masul boshqarma ularni qabul qilib oladi.</p> <p>Shundan so'ng, Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi tomonidan hisob-fakturalar va bajarilgan ishlar to'g'risidagi dalolatnomalar qabul qilib</p>	Shartnomada kelishilgan muddatlarda yoki ishlar to'liq bajarilganda

Bosqichlar	Sub'ektlar	Chora-tadbirlar	Muddatlar
		olinadi hamda shartnoma bo'yicha qolgan summa yetkazib beruvchi xisob raqamiga o'tkazib beriladi.	

**Izoh:**

- mazkur sxema bo'yicha barcha jarayonlar O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni (5-bobi) hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi 276-son qarori bilan tasdiqlangan "Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risida nizom"ga 3-ilovada keltirilgan sxema asosida amalga oshirilishi zarur;

- Ishlar boshqarmasi tomonidan davlat xaridlarini amalga oshirishda zaruratga ko'ra tegishli yo'nalishlar bo'yicha o'rnatilgan tartibda outsourcing asosida boshqa korxonalar va tashkilotlardan ekspert-mutaxassis yollash vakolati mavjud.

**Davlat statistika qo'mitasida tender vositasida davlat xaridlari amalga oshirish  
SXEMASI**

<b>Bosqichlar</b>	<b>Sub'ektlar</b>	<b>Chora-tadbirlar</b>	<b>Muddatlar</b>
<b>1-bosqich</b>	<b>Tashabbuskor boshqarma, Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi</b>	<p>Xarid qilinadigan tovar yoki ish xizmat miqdori, tavsifi, boshqa texnik ko'rsatkichlari va asosini ko'rsatgan holda bildirishnoma tayyorlaydi va Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi bilan kelishgan holda qo'mita raisiga kiritadi.</p> <p>Bunda AKT qurilmalari va bir birlik tovar qiymati 10*BHM (3 mln.so'm)dan yuqori bo'lgan tovarlar bo'yicha Texnik topshiriq ishlab chiqiladi.</p> <p>Shundan so'ng, tender o'tkazish bo'yicha qo'mita buyrug'i qabul qilinadi.</p>	<p>Tovarni (ish, xizmatlar) sotib olinishi zarurati yuzaga kelganda</p>
<b>2-bosqich</b>	<b>Ishlar boshqarmasi, Tashabbuskor boshqarma</b>	<p>Tender o'tkazish haqidagi e'lon, tender bo'yicha xarid qilish hujjati (texnik topshiriq, takliflarni baholash/tanlash reglamenti, qo'mitaning soliqdan qarz mavjud emasligi va tugatish jarayonida emasligi va boshqalar) loyihasini ishlab chiqadi va xarid komissiyasiga kelishish uchun davlat xaridlarining elektron tizimiga kiritadi.</p>	<p>Buyruqda ko'rsatilgan muddatlarda</p>
<b>3-bosqich</b>	<b>Xarid komissiyasi</b>	<p>Tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarini qonunchilikka muvofiqligi yuzasidan ko'rib chiqadi va xarid qilish hujjatlarini ERI klyuchi bilan komissiya a'zolari tasdiqlaydi.</p>	<p>Uch ish kundan oshmagan muddatda</p>

Bosqichlar	Sub'ektlar	Chora-tadbirlar	Muddatlar
4-bosqich	Ishlar boshqarmasi	<p>Tasdiqlangan xarid qilish bo'yicha hujjatlarni shuningdek tender o'tkazish haqidagi elonni va shartnoma namunasini davlat haridlarining elektron tizimga joylashtiradi.</p> <p>Bunda takliflarni qabul qilishga kamida 12 kun muddat berilishi zarur.</p>	Tender hujjatlari tasdiqlangan kundan 2 ish kunida
5-bosqich	Xarid komissiyasi, Xarid komissiyasi mas'ul kotibi	<p>Tender ishtirokchilari tomonidan joylashtirilgan takliflar va birlashtirilgan fayllardan iborat elektron hujjatlarni xarid komissiyasi azolari tender hujjatlaridagi ma'lumotlarga va tender shartlariga muvofiqligini tekshiradi. Tender jarayonlarida belgilangan shart bo'yicha eng past narx yoki ball usulidan foydalangan holda g'olib ishtirokchi aniqlanadi.</p> <p>Tender takliflarini ko'rib chiqish hamda baholash natijalarini avtomatik ravishda shakllanadigan dastlabki elektron bayonnomada qayd etadi va ushbu bayonnomani ERIdan foydalangan holda komissiya a'zolari imzolaydi.</p>	Takliflar berish tugagan payitdan etboran o'n ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatda
6-bosqich	Ishlar boshqarmasi, Yuridik bo'lim, Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmati,	<p>Tender yakuniga ko'ra g'olib deb topilgan ishtirokchi bilan shartnoma tayyorlanadi va tegishli bo'linmalar bilan kelishgan holda qo'mita raisi tomonidan imzolash uchun kiritiladi.</p> <p>Shartnoma summasining umumiy qiymati 1 mlrd so'mgacha 30% avans, 1 mlrd so'mdan oshgan taqdirda 15% avans to'lovi amalga oshiriladi.</p> <p>Mazkur imzolangan shartnomani tegishli bildirishnoma bilan birgalikda Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limiga taqdim etadi.</p>	G'olib aniqlangan kundan boshlab o'n ish kunidan
7-bosqich	Ishlar boshqarmasi, Tashabbuskor boshqarma, Masul boshqarmalar, Axborot xavfsizligi boshqarmasi, Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi, Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmati, Yuridik bo'lim	<p>Shartnomaga muvofiq yetkazib berilgan tovarni (yoki bajarilgan ish, xizmatlarni), Ombor mudiri va tegishli boshqarma vakili bilan birgalikda shartnomada keltirilgan talablarga mos kelishi yoki ish xizmatlarning to'liq bajarilganligi bo'yicha tekshiruv o'tkaziladi.</p> <p>Tovar (ishni, xizmatlar) shartnomada va tavsif-texnik topshiriqda ko'rsatilgan parametrlarga mos kelgan taqdirda yoki to'liq bajarilganda ishlar boshqarmasi boshlig'i topshiriga muvofiq Ombor mudiri yoki masul boshqarma ularni qabul qilib oladi.</p> <p>Shundan so'ng, Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi tomonidan hisob-fakturalar va bajarilgan ishlar to'g'risidagi dalolatnomalar qabul qilib olinadi hamda shartnoma bo'yicha qolgan summa yetkazib beruvchi xisob raqamiga</p>	Shartnomada kelishilgan muddatlarda yoki ishlar to'liq bajarilganda

Bosqichlar	Sub'ektlar	Chora-tadbirlar	Muddatlar
		o'tkazib beriladi.	

**Izoh:**

- mazkur sxema bo'yicha barcha jarayonlar O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni (6-bobi) hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi 276-son qarori bilan tasdiqlangan "Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risida nizom"ga 4-ildavada keltirilgan sxema asosida amalga oshirilishi zarur;

- Ishlar boshqarmasi tomonidan davlat xaridlarini amalga oshirishda zaruratga ko'ra tegishli yo'nalishlar bo'yicha o'rnatilgan tartibda outsourcing asosida boshqa korxonalar va tashkilotlardan ekspert-mutaxassis yollash vakolati mavjud.

**Davlat statistika qo'mitasi markaziy apparatida  
davlat xaridlariga oid shikoyatlarni ko'rib  
chiquvchi komissiya tarkibi**

1. A.A. Ikramov - Davlat statistika qo'mitasi raisi o'rinbosari, *Komissiya raisi*;
2. Z.M. Ziyayev - Davlat statistika qo'mitasi raisi o'rinbosari, *Komissiya raisi o'rinbosari*;
3. F.Z. Berdibayev - Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati boshqarmasi;
4. V.O. To'xtayev - Yuridik bo'lim boshlig'i;
6. O.Q. Babajanov - Bosh auditor
7. A.A. Sultanov - Ochiq ma'lumotlar portali faoliyatini monitoring qilish va muvofiqlashtirish boshqarmasi;

***Izoh:***

*-Xarid komissiyasi a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning o'rniga tayinlangan yoki ushbu vazifalarni bajarish yuklatilgan shaxslar komissiya tarkibiga kiritiladi.*